

NODAVLAT OLIY TA'LIM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Urazov Sadulla Shodieovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Menejment" kafedrası doktoranti, e-mail:
urazov.sadulla28@gmail.com, telefon: +998(88)-285-28-84

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim xizmatlari tizimini boshqarishning xorij tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida joriy qilish yo'nalishlari keltirilgan. Ta'lim xizmatlari tizimini boshqarishni tashkil etishda Osiyo va rivojlangan Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimi va ta'limdagi integratsiya jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nodavlat ta'lim xizmatlari, integratsiya, ta'lim xizmatlari integratsiyasi, ta'lim xizmatlari tizimini boshqarishning xorij tajribasi, Yevropa va Osiyo davlatlari ta'lim tizimi.


Аннотация: В данной статье изложен международный опыт управления образовательными услугами и направления его применения в Узбекистане. Освещены системы организации образовательных услуг в Азии и в развитых европейских странах и интеграционные процессы в образовании.

Ключевые слова: негосударственные образовательные услуги, интеграция, интеграция образовательных услуг, международный опыт управления образовательными услугами, система образования стран Европы и Азии.

Abstract: This article outlines the international experience in the management of educational services and the direction of its implementation in Uzbekistan. The systems of organization of educational services in Asia and in developed European countries and integration processes in education are discussed.

Keywords: nongovernmental educational services, integration, integration of educational services, international experience in the management of educational services, the education system of European and Asian countries.

Jahonda oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasiga xususiy sektorning kirib kelishi jadallashib bormoqda. Nodavlat, xususiy, davlat-xususiy sheriklik shakllarda tashkil etilayotgan oliy ta'lim muassasalarining xilma-xilligi va ko'payib borish tendensiyasi ular o'rtasidagi tafovutlarning yo'qolishiga ham olib kelmoqda. YUNESKO statistika instituti ta'rifiga ko'ra nodavlat oliy ta'lim- nodavlat tashkilot (NNT) tomonidan boshqariladigan boshqaruv kengashi asosan davlat muassasasi tomonidan tanlanmaydigan a'zolardan iborat bo'lgan ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ushbu ta'rifga asoslanadigan bo'lsak, dunyo bo'yicha talabalarning qariyb 33% nodavlat (aksariyat hollarda, xususiy) ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda va bu raqam so'nggi yillarda ortib eng katta ulush Markaziy va Janubiy Osiyoda (49%) va Lotin Amerikasi mamlakatlarida (54%) saqlanib turibdi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Jahon mintaqalari bo'yicha nodavlat oliy ta'lim xizmatlari ulushining rivojlanish tendensiyalari⁵⁸

Mamlakatlar kesimida olib qaraydigan bo'lsak, Qirg'iziston, Malayziya, Hindiston, Bangladesh, Tailand, Kolumbiya, Livan, davlatlarida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, Eron, Marokash, Braziliya, Efiopiya va Yevropaning sharqiy mamlakatlarida barqaror tendensiyaga ega.


Jahon bo'yicha olib qaralganda COVID-19 salbiy oqibatlari tufayli 109 mamlakatda nodavlat oliy ta'lim muassasalarining uy xo'jaliklari mablag'lariga o'ta qaramlik darajasi yuqori ekanligi oydinlashdi. Natijada talabalarining to'lov qobiliyati pasayishi bilan 25% dan 50% talabalar oliy ta'limni tark etishga majbur bo'lishdi⁵⁹. Ayniqsa bu nodavlat oliy ta'lim ulushi katta bo'lgan Afrika mamlakatlari (Efiopiya, Gana, Uganda)da ko'proq kuzatildi⁶⁰. AQSh nodavlat oliy ta'lim muassasalarining 10-25% daromadlari talabalarga yashash va ovqatlanish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishdan kelib tushganligi sababli ularda ushbu manbalar bo'yicha tushumlarning kamayib ketishi kuzatildi⁶¹. Shunga qaramasdan bugungi kunda oliy ta'limning nodavlat segmentida nafaqat mintaqalar, balki mamlakatlar kesimida ham qamrov darajasining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda (1.4-rasm).

⁵⁸ Ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

⁵⁹ Marinoni, G., Land, H.V. and Jensen, T. (2020) The Impact of COVID-19 on Higher Education around the World. International Association of Universities, France. IAU Global Survey Report. <https://ejournals.bc.edu/index.php/ihe/article/view/14593>

⁶⁰ Levy, Daniel & Tamrat, Wondwosen. (2021). Viewing the Stunning Growth of Nonstate Higher Education: Ethiopia and East Africa. Background paper prepared for the Global Education Monitoring Report Non-state actors in education. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000380087.locale=ru>

⁶¹ Kelchen, R. 2020. How Much Do Private Colleges Rely on Auxiliary Revenue Sources? Knoxville, Tenn., Kelchen on Education. <https://robertkelchen.com/2020/06/01/how-much-do-private-colleges-rely-on-auxiliary-revenue-sources>.



1.4-rasm. Jahon mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalari tomonidan talabalar qamrov darajasi⁶²

YUNESKO ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, tadqiqot o'tkazilgan 131 ta mamlakatdan 99 tasida oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishda nodavlat sektorning ulushi 60% dan yuqori, 96 tasida esa o'rta ta'limning nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan. Nodavlat oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi muassasalar soni kundan-kunga ortib borayotganligiga qaramasdan, ular tomonidan jalb qilingan talabalar ulushi pasayish tendensiyasiga ega ekanligini ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak.

Braziliyada nodavlat oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish bozor muhitiga juda moslashuvchan bo'lib, talabalarining bo'sh vaqtidan samarali foydalanish asosida tashkil etishga urg'u berilgan⁶³. Bugungi kunda Braziliyada nodavlat oliy ta'lim muassasalari mamlakat bo'yicha jami talabalarining 68% qamrab olgan. Talabalarining 56% sirtqi shaklda o'qiydi. Davlat ta'lim muassasalarida vaziyat tamoman boshqacha, sirtqi ta'lim 14 ta oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan bo'lib, talabalarining 36% sirtqi shaklda o'qiydi⁶⁴. Braziliyada nodavlat oliy ta'lim muassasalariga jalb etish amaliyoti avvalo ta'lim krediti va oliy ta'limni subsidiyalashga ustuvorlik berilganligi bilan ahamiyatli bo'lib, daromadi past bo'lgan oila farzandlari uchun kvota, imtiyozli subsidiyalar olish imkoniyati juda katta (1.5-rasm).

Shu bilan birga imtiyozli subsidiya va ta'lim kreditining ommabopligi Braziliyada ta'lim xizmatlari qiymatining yuqoriligiga ham olib kelmoqda. Yana bir muhim jihatlaridan biri Braziliyada ilmiy-tadqiqotlar to'laligicha davlat ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatdagi 15 ta davlat oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot faoliyati natijalaridagi ulushi 61% dan yuqoridir⁶⁵.

⁶² Ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

⁶³ Knobel, M., & Verhine, R. (2017). Brazil's For-Profit Higher Education Dilemma. *International Higher Education*, (89), 23–24. <https://doi.org/10.6017/ihe.2017.89.9843>.

⁶⁴ Almeida de Carvalho, C. H. 2013. A mercantilização da educação superior brasileira e as estratégias de mercado das instituições lucrativas. *Revista Brasileira de Educação*, Vol. 18, pp. 761–76. <https://doi.org/10.1590/S1413-24782013000300013>

⁶⁵ Brazil Ministry of Education and Culture. 2021. Perguntas frequentes [Frequently asked questions]. Brasília, Ministry of Education and Culture. <http://portal.mec.gov.br/cotas/perguntas-frequentes.html>.

Malayziyada nodavlat oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoni talabalarni kreditlashning davlat maqsadli dasturiga asoslangan. Talabalarning 50% o'qish to'lovlari davlat tomonidan subsidiyalanadi. Bu esa nodavlat ta'lim muassasalarining asosiy daromad manbai davlat subsidiyasi va talaba kreditlari ekanligidan dalolat bermoqda. Malayziyada nodavlat oliy ta'lim muassasalari ko'p jihatdan etnik guruhlariga ham yo'naltirilgan bo'lib, asosan mamlakatdagi etnik xitoy va xindlardan iborat. Etnik malayziyaliklar (bumiputra)ning 85% davlat oliy ta'lim muassasalarida tahsil oladi, nodavlat oliy ta'lim muassasalarining 91% ni esa boshqa etnik guruhlar tashkil etgan⁶⁶. Nodavlat ta'lim muassasalarida davlat tomonidan strategik islohotlar va rivojlantirish dasturlarida belgilangan vazifalar asosida qat'iy tartibga solinadi.

Shri Lankada ta'lim qamrovi 99% ni tashkil etishiga qaramasdan, oliy ta'limda ushbu ko'rsatkich 21% ni tashkil etadi. Mamlakatda 20 ga yaqin davlat universitetlari mavjud bo'lib, ular atigi 42000 talabani qabul qilish quvvatiga ega. Maktabni bitirgan yoshlarning atigi 10-11% i mahalliy universitetlarga 17% xorijga, 35,9% nodavlat oliy ta'lim muassasalariga, turli kasbiy va akademik kurslarda o'qishni davom ettiradi. Nodavlat oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish salohiyati juda yuqori bo'lib, "...mamlakatda 47 ta universitet faoliyat ko'rsatadi. Ularning 27 tasi mamlakat oliy ta'lim vazirligi tomonidan ruxsat berilgan xususiy universitetlar, 18 tasi universitetlarni moliyalashtirish Komissiyasi tomonidan ruxsatnomaga ega, 2 tasi oliy ta'lim vazirligi qoshida tashkil etilgan"⁶⁷. Nodavlat oliy ta'lim qamrovi 12% ni tashkil etadi.

Shri Lankada nodavlat oliy ta'lim tizimini kengaytirishdan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlarning ta'lim davomiyligini 4-5 yilga qisqartirish orqali yuqori malakali kadrlar sifatida tayyorlash, ularning salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanish hisoblanadi. mamlakat oliy ta'lim tizimida raqobatning juda kuchliligi bois, universitet bitiruvchilarining o'rtacha yoshi 24-25 yoshni tashkil etmoqda, shu bilan birga davlat oliy ta'lim tizimidagi talabalarning 65% ni ayollar tashkil qiladi. Bu o'z o'zidan erkak yoshlarni o'qitish va ish bilan ta'minlashga jiddiy yondashish zaruratini keltirib chiqaradi. Bundan tashqarim mamlakatda uy xo'jaliklari ta'lim xarajatlarida o'rta ta'lim 48% ga, kasbiy tayyorgarlik 14%, va oliy ta'lim 9% ni tashkil etadi. 2022 yilda kuzatilgan iqtisodiy inqiroz mamlakatdagi ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni, oliy ta'lim tizimida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish zaruratini qo'yadi. 2021-2022 yillardagi iqtisodiy inqirozdan keyingi tiklanish chora-tadbirlari doirasida 2023 yilda Kolombo shahrida xorijiy universitetlarni jalb qilishga yo'naltirilgan erkin iqtisodiy zona tashkil qilingan. Ushbu EIZ biznesni boshqarish, buxgalteriya hisobi, moliya, bank ishi, axborot texnologiyalari, injeneriya va tibbiyot sohalarida mutaxassislarni tayyorlashga ustuvorlik berilgan.

YeI yagona Oliy ta'lim mintaqasi (European Higher Education Area – EHEA) yaratilganligiga qaramasdan, Gresiyada mahalliy nodavlat universitetlarning

⁶⁶He, Bonnie & Ruby, Alan. (2017). A Chinese Branch Campus in Malaysia—Adjusting Fundamentals. International Higher Education. 3. 10.6017/ihe.2017.88.9679.

⁶⁷ Sajeewa Meepage. Growth of Sri Lanka's private higher education sector. <https://opportunities-insight.britishcouncil.org/blog/growth-of-sri-lanka's-private-higher-education-sector>

konstitutsiyaviy jihatdan taqiqlanishi, Sloveniya va Fransiya hukumat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishigacha, Germaniya va Avstriyadagi nodavlat oliy ta'lim muassasalari "universitet" maqomiga ega bo'lishidan tortib, Fransiya uchun ushbu maqomga ruxsat berilmasligi Shveysyada ta'lim dasturlari va kurslarning davlat tomonidan tasdiqlanish sharti va kabilar tufayli nodavlat oliy ta'lim muassasalari hanuzgacha turli tashkiliy-huquqiy shartlariga asoslanadi"⁶⁸. Shu bilan birga Yevropa Ittifoqining alohida mamlakatlarida Osiyo va Amerika universitetlari bilan raqobatlashuviga asoslanib oliy ta'limning bozor tamoyillariga asoslanganligini ham ko'rishimiz mumkin.

Fransiya uchun nodavlat ta'lim faoliyati bilan nodavlat notijorat tashkilotlar, xususiy tadbirkorlar, turli kompaniyalar, tijorat birlashmalari, tadbirkorlar va boshqa xususiy shaxslar shug'ullanadi. Bugungi kunda mamlakatda nodavlat oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar soni 389 ming nafarni, yillik daromadi 2,77 mlrd. evroni tashkil etadi.

Germaniyada ushbu soha sub'ektlarining katta qismini oilaviy korxonalar tashkil etadi. Nodavlat ta'limni tashkil qilishning Germaniya tajribasi ijtimoiy yo'naltirilgan hisoblanadi. Jamiyat farovonligini ta'minlashning asosiy sharti sifatida ta'lim xizmatlari ko'rsatish asosan davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Ta'limning ommabopligi va barcha uchun yo'naltirilganligi mamlakat fuqarolari sifatli oliy ta'lim olish kafolati ta'minlanganligi barcha uchun oliy anglatadi.

Nodavlat oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning AQSh tajribasi raqobat mexanizmlarini qo'llab-quvvatlashi, ta'lim oluvchilar va kadr iste'molchilar natijalar uchun alohida shaxsiy javobgarlik tizimi mavjudligi bilan afzalliklarga ega. AQShda xususiy universitetlar son va qamrov jihatidan ham ustunlik qiladi. Oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish bilan asosan yirik nodavlat tashkilotlari, diniy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, yirik korporatsiyalar shug'ullanadi. Oliy ta'limning davlat segmenti yoki federal tizimi 1960-1970-yillarida kuzatilgan malakali kadrlar tanqisligi tufayli rivojlanib boshladi.

Yaponiyada oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi korporativ-paternalistik tamoyillarga asoslanib, Davlat ta'lim standartlarini belgilash orqali har bir ta'lim oluvchining milliy iqtisodiyotning barcha jabhalarida ilmiy-texnik rivojlanishga hissa qo'shishini, ta'lim jarayonining ham ushbu taraqqiyot darajasiga hamohangligini ta'minlash birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Yaponiyada nodavlat oliy ta'lim muassasalari aniq korporativ segmentga yo'naltirilgan bo'lib, yirik korporatsiyalar xodimlarning malakasini oshirishni, ular uchun mutaxassislar tayyorlash va ta'minlash, jahon inson resurslari bozoriga o'zlarining ta'lim xizmatlarini taklif qilishga, nodavlat oliy ta'limning ustaxonalar, o'quv xonalari, tezkor malaka oshirish va qayta tayyorlash, liderlik va rahbarlik ko'nikmalari bo'yicha tashkiliy va boshqaruv dasturlarini ishlab chiqish orqali nodavlat oliy ta'lim infratuzilmasini yaratishga asosiy urg'u qaratadilar.

⁶⁸ Hekking, Klaus, *The Alternative: Non-State Higher Education in Europe*, 1st ed., BWV Berliner Wissenschafts-Verlag, Berlin, 2022.

RF jahon nodavlat oliy ta'lim bozorining juda katta va natijador segmentlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham RF nodavlat oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish masalalari nafaqat milliy darajadagi davlat idoralari, balki YuNESKO, Jahon banki, OECD va Yevropa Kengashi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham keng o'rganilmoqda. Mamlakatda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari tufayli nodavlat oliy ta'lim tizimida bozor munosabatlari, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida esa ushbu sektorni rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilgan.

RF oliy ta'limga qamrab olish bo'yicha jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan ham yuqori turadi. Bugungi kunda nodavlat OTMlarda o'qiyotgan talabalarning 22% davlat oliy ta'lim muassasalarida yangi zamonaviy mutaxassisliklar va davlat muassasalar tomonidan o'qitilayotgan mavzulardan qoniqish hosil qilmaganliklari bois kirganligini, 15%i noan'anaviy o'qitish tizimi tufayli, 5% federal oliy ta'lim muassasalarida yagona davlat imtihonining murakkabligi, 68% ushbu yo'nalishlarga davlat OTMlariga qabul qilinmaganligi sababli kirganliklarini bildirishgan. Rossiya Federatsiyasida 653 dan ortiq davlat va 462 nodavlat oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. Davlat oliy o'quv yurtlari an'anaviy universitetlar, pedagogika, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, muhandislik, qurilish-muhandislik, yuridik va jismoniy tarbiya sohalarida ustunlik qiladi.

YuNESKO va DGP Research & Consulting konsalting tashkiloti hamkorligida jalb etilgan xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan milliy ta'lim tizimini kompleks o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tahlillarda ta'lim sifatini yaxshilashda raqobat muhitini shakllantirish, bunda xususiy ta'lim sektorini rivojlantirishga ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratish zarurligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Bugungi kunda respublikamizda jami oliy ta'lim muassasalari soni 213 ta bo'lib, ularning 67 tasi nodavlat oliy ta'lim muassasalari hisoblanishadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, oliy ta'lim tizimida, asosan talabalarni o'qitish ikki yo'nalishga yo'naltirilmog'i lozim. Birinchi yo'nalish-bitiruvchi talabalarning o'z bilim va malakalarini ish beruvchilar talabiga mos keltirilishi lozim bo'lsa, Ikkinchi yo'nalish - talabalarni keyinchalik ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishga yo'naltirish lozim.

Bugungi kunda nodavlat ta'lim xizmatlari tizimida bilimlarni olish bilan bir qatorda ish beruvchi-korxonada ishlash asosida amaliy tajribalarni ham orttirib borishga yo'naltirilgan **Duales Studium** ta'lim tizimini joriy qilishni taqoza qilmoqda. Duales Studium tizimi 2-3 yil davom etadi. Ushbu o'qish vaqti davomida o'quvchi haftasiga 3-4 kun o'zi bilan shartnoma tuzgan firmada ishlaydi. O'quvchilar 8 dan 12 soatgacha kasbiy bilimlarni oladilar va yakunda davlat imtihonlarini topshiradilar. Agar imtihondan o'ta olmasa, uni qayta topshirishi mumkin. Ushbu ta'lim xizmat turi quyidagi ijobiy xususiyatlarga ega:

- ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib boriladi;
- o'qish tamom bo'lganidan so'ng talabaning amaliyot o'tagan korxonasida ish topish ehtimolligi yuqori bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. 14- b.

3. Altbach P.G., Kelly G.P. New Approaches to Comparative Education. Chicago and London: The University of Chicago Press, 2006. 228 p.

4. M.Q.Pardaev “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining ayrim muammolari” monografiya Toshkent-2014 yil, 20 bet

5. D.G.Muxamedova. Ta’lim menejerini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik texnologiyalarini takomillashtirish. psixologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. T:2015 y. –75 b

6. Isaqulova N., Qosimova Z. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim. – Toshkent. 2011. – 106 b.

7. Usmonov N., Germaniyada kasb-xunar ta’limi. Xorijda ta’lim. Ma’r. 2002 yil 13 fevral 10

